

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



ILM-MA'RIFATGA HOMIY SULTON YOHUD MAHMUD G'AZNAVIY SHAXSIYATIGA BIR NAZAR

Abdullahayev Jahongir Shuhrat o‘g‘li

O‘zbekiston Xalqaro islam akademiyasi tarix (islom sivilizatsiyasi) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Telefon: +998940189502

Email: Abdullahayev9595jahongir@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘rta asrlarning qudratli musulmon davlatlaridan biri bo‘lgan G‘aznaviyalar davlatining mashhur hukmdori, buyuk sarkarda, ilm-ma’rifat, adabiyot va san’at homisi Mahmud G‘aznaviy shaxsiyatining turli jihatlarini ochib berishga bag‘ishlangan. Unda sulton tashabbusi bilan tashkil etilgan o‘zida to‘rt yuzdan ortiq olim-u fuzulolarni jamlagan G‘azna akademiyasi, Yaminiy observatoriysi, musulmon Sharqidagi dastlabki davlat madrasasi, Bog‘i Sedxezar va shu kabi o‘sha davrda barpo etilgan ko‘plab masjid, xonaqohlar, qator buniyodkorlik ishlari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: G‘aznaviyalar davlati, abbosiyalar, somoniylar, xorazmshohlar, Mahmud G‘aznaviy, Mas‘ud G‘aznaviy, G‘azna akademiyasi, Yaminiy observatoriysi, Bog‘i Sedxezar, “Tag‘riyd”, Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiy, Gardizi, Bayhaqi, Utbiy.

Abstract: This article is dedicated to revealing various aspects of the personality of Mahmud Ghaznavi, the famous ruler of the Ghaznavid’s state, one of the most powerful countries of the Middle ages, the great commander, patron of science, literature and art. It included in the Ghazni Academy which fondered at the initiative of sultan and containing more than four hundred scholars, Yamini Observatory, the first state madrasa in the Muslim East, The Garden of Sedkhezar, as well as many mosques, khanaqahs, and a number of creative works have been carried out.

Key words: Ghaznavid state, Abbasids, Samanids, Khorezm kings, Karakhanids, Mahmud Ghaznavi, Mas‘ud Ghaznavi, Ghazni Academy, Yamini Observatory, The Garden of Sedkhezar, “Taghrid”, Beruni, Ibn Sina, Firdausi, Gardizi, Bayhaqi, Utbiy.

Аннотация: Данная статья посвящена раскрытию различных сторон личности известного правителя государства Газневидов, одного из самых могущественных мусульманских государств Средневековья, великого полководца, покровителем науки, просвещения, литературы и искусства. В его состав вошли Академия Газна, инициативе султана и насчитывавшая более четырехсот ученых, Обсерватория Ямини, первое государственное медресе на мусульманском Востоке, Сад Седхезар, а также множество построенных в то время мечетей и ханакахов, выполнен ряд творческих работы.

Ключевые слова: Государство Газневидов, Аббасиды, Саманиды, Хорезмские цари, Махмуд Газневи, Масуд Газневи, Академия Газневи, Обсерватория Ямини, “Тагрид”, Беруни, Ибн Сина, Фирдауси, Гардизи, Байхаки, Утбий.

Kirish.

Dunyo yaralibdiki, insoniyat o‘zini va o‘zligini, tevarak olam sir-u sinoatlarini bilishga, kashf etishga intilib kelmoqda. Tarixda shunday davrlar va shunday shaxslar

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



bo‘lganki, ularni o‘rganish, tahlil va talqin qilish zamon va makon tanlamaydi. Zero, ularni yaxshi bilmaslik biz bugun yashayotgan, informatsion tehnologiyar va tehnika taraqqiyoti davri mohiyatini yaxshi anglamaslikka, o‘tmish daholari ilmiy, ma’naviy me’rosini munosib qadrlayolmaslikka sabab bo‘ladi. Bizga ma’lumki, insoniyat Sharqda ikki bor va G‘arbda bir bor Renessans – jamiyat turli sohalarining yuksak taraqqiyoti, ilm-fan, madaniyat va san’at gurkirab rivojlangan davrni boshdan kechirdi. Ayniqsa, IX–XII asrlardagi Birinchi sharq renessansi dunyo sivilizatsiyani yangi bosqichga olib chiqdi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. E’tiborli jihat shundaki, shu davrning eng katta, tom ma’nodagi richak vazifasini o‘tagan daho siymolarining aksariyati, aynan Movaraunnahr va unga tutash manzilda tug‘ilib kamolga yetgan shaxsiyatlar nomi bilan bog‘liqdir. Bu hodisa shunchaki bir tasodif emas, balki bu mintaqada o‘sha davrda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy muhit bilan bevosita bog‘liqdir. Quyida o‘sha Birinchi sharq uyg‘onish davrining ba’zi mashhur qomusiy olimlari hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan g‘aznaviylar davrida yuksak darajada kamolga yetgan ilm-ma’rifat, san’at va adabiyot xususida atroflicha to‘xtalib o‘tamiz. Shuningdek, bu allomalar kamolotida islom aqidasi, Qur’oni karim, hadisi sharif va boshqa ilmlarning ahamiyati borasida to‘xtalib o‘tamiz. Shunisi aniqki, bu ilm peshvolarining aksariyati hali bolaligidayoq Qur’oni karimni yod olib, hadis, fiqh va boshqa islom ilmlarida ham ildam bo‘lganlar, tabiiy, aniq, gumanitar va boshqa fan sohalarini yaxshi o‘zlashtirganlar. Aynan shu bilimlar ularni buyuk asarlar yozishga ilhomlantirgan, tayanch bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, Ibn Sino “Al-Qonun fit-tib” asarida tib un-nabaviyaga murojaat etgan.

X asrning so’ngi choragida mustaqil davlat sifatida tarix sahnasida paydo bo‘lgan bu sulolning har jihatdan yuksak taraqqiyot va ilm-u urfon cho‘qqisiga ko‘tarilishida buyuk sarkarda, davlat arbobi, shoir, faqih va ilm-ma’rifat homiysi Mahmud G‘aznaviy (997—1030) ning xizmatlari katta bo‘ldi. To‘liq ismi Yamin ud-davla va Amin al-Milla va Nizom ad-din va Nasir al-Haq Abul Qosim Mahmud ibn Sabuqtegin G‘aznaviy 971-yil 2-noyabrda G‘azna shahrida (hozirgi Afg‘oniston) tavallud topgan va 1030-yil shu yerda vafot etgan. U o‘z ona tilisi turkiy til bilan bir qatorda arab, fors va pahlaviy tillarini yaxshi bilgan, o‘zi ham she’rlar bitgan.

Sulton Mahmud G‘aznaviyning otasi Sabuqtegin ham o‘z zamonasining ilm-ma’rifat egalaridan biri bo‘lgan. Buni o‘g‘li Mahmudga aytgan quyidagi nasihatdan ham ko‘rish mumkin: “Ma’naviy ulug‘vorlik bamisol alanga va shamol, bularning alanga va parvoz xususiyati bor. Maishat esa qiya yerdagi qum uyumiga o‘xshash

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



uning tubanlikka surilish xususiyati bor”. Shu bois Mahmud o‘z hayoti davomida otasining shu kabi hikmatlariga amal qilgan.

Bu davlat abbosiyalar xalifaligi kuchsizlangan bir davrda, eng qudratli musulmon davlatlaridan biriga aylanadi. Somoniylarga qarshi isyon ko‘targan turk amirlari bilan janglarda otasi qo‘shtida qatnashib, kata jasorat ko‘rsatgani uchun “sayf ud-davla” (“davlat qilichi”) unvoniga ega bo‘lgan (994) Sulton Mahmud shaxsiyati haqida turli tarixchilar va sultonga zamondosh kishilar, olimlar ko‘plab muhim ma’lumotlar yozib qoldirgan.

Masalan, mashhur tarixnavis Ibn Asirning “Al-Komil” asarida quyidagilar keltirib o‘tilgan: “Yamin ud-davla Mahmud ibn Sabuq Tekin oqil, dindor va nihoyatda yaxshi inson edi. U ilm-ma’rifatda ham yetuk odam bo‘lib, turli ilmlar bo‘yicha kitoblar tasnif qilgan. Turli diyorlardan ulamolar uni izlab kelishar, sulton Mahmud G‘aznaviy esa ularni hurmatlar, e’zozlar va ulug‘lardi. U adolatli inson bo‘lib, odamlarga ko‘p yaxshiliklar qilar va mehr ko‘rsatar edi...”

U haqida shayx Abdulhay Deylaviy o‘zining “Nuzahutul xavotir” kitobida shunday deydi: “Sulton Mahmud G‘aznaviy ko‘zga ko‘ringan faqihlardan edi. Uning bir qancha kitoblari bor. Fiqhga oid “Tag‘riyd” nomli kitobi shu jumladandir. Bu kitob G‘azna diyorida mashhur bo‘lgan juda yaxshi kitob. Ko‘p masalalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ularning adadi oltmis mingtadir”.

“Islom Tarixi” nomli asar yozgan Sardor Mahmud u haqida quyidagilarni keltirib o‘tadi: ...G‘aznaviylar haqida bitilgan “Tarixi Yaminiy” asarining muallifi, mashhur olim Utbiy Mahmud saroyida faoliyat olib bordi. O‘z panohida shunchalik ko‘p yozuvchilar, san’atkorlar va olimlarni to‘plab, butun qit’ada shu qadar yuksak obro‘ga ega bo‘lish kamdan-kam podshohga nasib etgan.”

Uning davrida poytaxt G‘aznada yuksak ilmiy-adabiy muassasa, Mahmud G‘aznaviy tashabbusi bilan tashkil etilgan G‘azna akademiyasi o‘z davrida IX asr boshlarida Bag'dodda tashkil etilgan Bayt ul-hikmaga xos ko‘plab xususiyatlarni o‘zida jamlagan. Jumladan, 400 dan ortiq olim-u fuzalolardan iborat jamoa ilm-fan va san’atning turli sohalarida ijod qilgan. Bu dargohda ham hind, yunon, qadimgi yahudiy va boshqa tillardagi manbalar tarjima qilinib, o‘rganilgan. Bu akademiyadagi olimlarning aksariyati, hukmdor tomonidan zabit etilgan o‘lkalardan olib kelingan bo‘lib, ularning erkin, samarali ilmiy-ijodiy faoliyat yuritishlari uchun munosib shart-sharoit yaratib berilgan, ular ham iqtisodiy, ham ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlangan.

Shuningdek, Mahmud G‘aznaviy ma’rifatli hukmdor sifatida o‘z ona tilisi turkiy til bilan bir qatorda arab, fors va pahlaviy tillarini yaxshi bilgan, o‘zi ham

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



she’rlar bitgan. U musulmonlar shon-shuhratini oshirish maqsadida ko‘plab masjid va madrasa va boshqa inshootlar qurdiradi. Ulardan biri Busta viloyatida bunyod etilgan Lashkargoh majmuasi (yoki Lashkari bozor) edi.

Bizga ma’lumki, X asr oxirida somoniylar hukmronligining tanazzuli natijasida 995-yil xorazmshoh Ma’mun ibn Ma’mun ikkiga bo‘linib ketgan Xorazmni yagona davlatga birlashtirdi va 1004-yil uning tashabbusi bilan Gurganch (hozirgi Ko‘hna Urganch, Turkmanistonning Toshhovuz viloyatida) Abu Rayhon Beruniy (973—1048) va Abu Nasr ibn Iroq (X asr—1034) boshchiligidagi “Dorul hikma va maorif” (“Bilimdonlik va maorif uyi”) – Xorazm “Ma’mun akademiyasi” tashkil etildi va ilm-ma’rifat o‘choqlaridan biriga aylandi. Unda yuqorida keltirilgan olimlardan tashqari Abulkayr ibn Hammor (991—1048), Abu Sahl Masihiy (970—1011), Abu Ali Ibn Sino, Al-Xo‘jandi, Abu Mansur as-Solibiy va boshqalar faoliyat yuritgan.

Biroq, 1017-yil Mahmud G‘aznaviy xorazmshoh Ma’munning o‘limidan foydalanib, uning poytaxti Ko‘hna Urganchni egalladi va yosh xorazmshoh (o‘n sakkiz yoshli Muhammad ibn Ali ibn Ma’mun) va uning barcha oilaviy sulolasiga a’zolari hamda Beruniy, Gardiziy va boshqa ko‘plab olimlarni G‘aznaga olib ketdi. Ularning hayot kechirishi, ilmiy-ijodiy faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratib berdi.

Bu davrda sulton homiyligi ostida Faruhiy, Unsuriy, Manuchehriy, Utbiy, Gardiziy, Bayhaqiy, Nosir Xisrav va Beruniy kabi qator shoirlar, tarixchi va qomusiy olimlar faoliyat ko‘rsatgan. Mazkur davrda o‘ttiz yildan ortiq davr mobaynida Firdavsiy tomonidan yozilgan “Shohnoma” asari Mahmud G‘aznaviyga tortiq etiladi. Biroq, hukmdor unda muallif Eronzamin xalqini ulug‘lab, ularni Turonzaminga qarshi qo‘yilganligi uchun uni qabul qilmaydi.

Mahmud G‘aznaviy Hindiston va boshqa o‘lkalardan olib kelingan o‘ljalarini asosan, qurilish va obodonchilika ishlariga sarflagan. Shuningdek, qo‘lga kiritilgan boyliklarning ba’zilarini xalifalik xazinasiga jo‘natgan va bu o‘ljalar, ko‘pincha, u yerda masjid, madrasa va xonaqohlar qurilishiga sarflangan. Bunga sabab, garchi G‘aznaviylar davlati to‘la mustaqil bo‘lsa-da sulton xalifalikni rasman tan olib, xalifalarni payg‘ambar avlodni sifatida hurmat qilardi.

O‘scha davrda G‘azna shahri nafaqat musulmon sharqida, balki butun musulmon dunyosi va hatto jahondagi ilm-fan, madaniyat va san’at yuksak darajada rivojlangan, har jihatdan obod va ko‘rkam manzilga aylangan. Bu yerda sulton Mahmud ilk davlat madrasasi, mashhur jo‘me masjidi, ulkan suv to‘g‘oni, bog‘ va ko‘shklar hamda boshqa bir qancha inshootlar barpo ettirgan.

Jumladan, yuksak did egasi va go‘zallik shaydosi Mahmud G‘aznaviy tomonidan G‘aznada barpo etilgan sulton bog‘i bo‘lmish Bog‘i Sedxezar o‘ziga xos

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



shaklga ega bo‘lgan. Unda sulton va uning avlodlari turli marosimlarni o‘tkazgan va bu manzil ajoyib xordiq olish maskani bo‘lgan. Xususan, Ma’sud G‘aznaviy o‘z davrida bu bog‘dagi otasi Mahmud qurdirgan Zavul ko‘shkini obodonlashtirishni buyurdi va o‘g‘illarini sunnat qilish maqsadida bu ko‘shkni tilla suvi yuritilgan turli pardalar bilan bezatishni, xilma-xil mushk-anbarlar bilan ziynatlashni amr etdi. Hozirda g‘aznaviyalar tomonidan XII asrda poytaxtda qurilgan mashhur me’moriy obidalardan ikkita minora qoldiqlari saqlanib qolgan.

Sulton Mahmud G‘aznaviy Hindistonga bo‘lgan g‘alabali yurishdan qaytganida u tomonidan safarga yo‘l olishidan oldin berilgan buyruq asosida ulkan G‘azna jo‘me masjidi eski masjid o‘rnida tiklanayotgan edi. Shunda sulton uning qurilishiga katta mablag‘ ajratdi va unda eng kuchli arxitektor va ustalar xizmatidan foydalanildi. Bu jarayonda Hind va Sinddan yog‘ochlar, turli mintaqalardan qimmatbaho oq marmar olib keltirildi va masjid oltin suvi bilan bezatildi.

Beruniy G‘aznada Mahmud G‘aznaviy ko‘magida Yamin rasadxonasi nomli kichik bir observatoriya tashkil etadi. Uni kerakli turli asboblar va o‘zi yasagan shkala aniqligi bir minutli, diametri 4.5 metr bo‘lgan kvadrat bilan jihozlaydi. So‘ngra, bu ilmiy markazda o‘zining ilmiy tadqiqot ishlarini va astronomik kuzatishlarini davom ettiradi. Ko‘plab astronom olimlar bilan birqalikda ijod qiladi. Beruniy mashhur “Qonuni Ma’sudiy” asarini shu rasadxonadagi ilmiy kuzatishlar asosida yozgan va uni shoh Ma’sud G‘aznaviyga taqdim etgan. Bu asarni rus professori S. P. Tolstov shunday baholaydi: “Qonuni Ma’sudiy” matematika, geografiya sohasida kata to‘plam bo‘lib, zamondoshlari va avlodlari fikricha, Beruniy bu asari bilan o‘zining antik uestozi Ptolomeydan o‘zib ketdi va hamma o‘rta asr o‘tmishdoshlarining asarlarini puchga chiqardi.”

Bu sulola davrida poytaxt G‘aznadan tashqari Balx, Nishopur, Marv va Lohur kabi boshqa yirik shaharlarda ham katta bunyodkorlik ishlari olib borilib, ko‘plab masjid, madrasa va xonaqohlar qurilib, yirik kutubxonalar faoliyat ko‘rsatgan. Ajoyib bog‘-u rog‘lar barpo etilgan.

G‘aznaviyalar davrida, xususan, Yamin ud-davla sulton Mahmud barcha rasmiy hujjalilar, aktlar, muhrlarni arab tilida yuritishga buyruq beradi. Bu til rasmiy til sifatida amalda bo‘lgan. Shuningdek, adabiyot, she’riyat tili sifatida fors tili urfdan bo‘lgan. Bayhaqiy bu davrda ijod qilgan Rudakiy, Daqiqiy, Unsuriy (saroy shoiri), Mas’ud Roziy, Mar’ufiy, Hanifa Iskafi kabi yigirma uchta mashhur forsiz zabon shoirlar haqida o‘zining “Qonuni Mas’udiy” asarida keltirib o‘tadi.

Bu davrda ta’lim-tarbiya masalalariga alohida urg‘u berilgan. Bunga davlat darajasida e’tibor qaratilgan. Birgina sulton Mahmud tomonidan 1019-yilda tashkil

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



etilgan musulmon sharqidagi dastlabki davlat madrasasi fikrimizning isbotidir. Bu madrasa sharqona arxitektura uslubida bunyod etilgan bo‘lib, unda noyob qo‘lyozmalarni jamlagan boy kutubxona ham faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, uning tarkibida talabalar uchun maxsus turar joylar–xonaqohlar bo‘lgan. Madrasada zamonasining peshqadam ulamolari, ilm peshvolari dars bergen. Ulardan mashhur shoir Unsuriyni misol qilib keltirish mumkin. Madrasaning barcha xarajatlari sulton tomonidan ajratilgan vaqf mulklari hisobidan qoplangan. Madrasada talabalarga dastlab arab tili grammatikasi, Qur’on va hadis ilmlaridan ta’lim berilgan. Ularga arifmetika, handasa, jug‘rofiya, tibbiyot, mantiq, kimyo, she’riyat kabi fanlar o‘qitilgan. Ta’lim davomiyligi toliblarning belgilangan materiallarni qanchalik puxta va tez o‘zlashtirishlariga bog‘liq ravishda bir necha yilga cho‘zilgan. Bu kabi tizim davlatdagi boshqa madrasalarda ham amalda bo‘lgan.

Sulton Mahmud ilm-ma’rifat ahllarini yuksak qadrlagan. O‘zi ham turli ilmiy majlislarda qatnashgan, olim-u fuzalolar bilan fikr almashgan, she’rlar, asarlar yozgan. Allomalar, ilm sohiblarini ham moddiy, ham ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan. Bu kabi jarayon keyingi g‘aznaviy hukdorlar davrida ham muayyan darajada davom etgan. Shu bois bu davrda insoniyat tamaddunini yangi bosqichga olib chiqqan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino kabi qomusiy olimlar, Abu Sahl Masihiy, Abu Nasr Ibn Iroq kabi ilm peshvolari yetishib chiqdi. Biz bu davr haqidagi ma’lumotlarni ko‘plab tarixchilar, shu davrda yashagan kishilar, olimlar tomonidan yozib qoldirilgan asarlar orqali o‘rganamiz. Ulardan eng mashhurlari Rashiduddin Fazlullohning “Jome’ ut-tavorix”, Utbiyning “Tarixi Yaminiy”, Gardiziyning “Zayn ul-axbor”, Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy”, Beruniyning “Hindiston”, “Geodeziya” kabi asarlaridir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, G‘aznaviyalar davlati o‘z davrida nafaqat O‘rtal Sharq musulmon jamiyatida, balki, umumislom dunyosi, qolaversa, jahon tarixi sivilizatsiyasida ham o‘z munosib o‘rniga ega bo‘lgan. Bu davr va undagi buyuk shaxsiyatlar, ayniqsa, qator qomusiy olimlar hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish bugungi kun uchun ham juda ahamiyatlidir. Xususan, ular kamolotida muhim rol o‘ynagan islom dinining yuksak ahamiyatini ochib berish, jamiyat va davlat hayotiga bo‘lgan ta’sirini tahlil va talqin etish orqali Birnchi sharq renessansi vujudga kelishi va uning taraqqiyoti borasida atroflicha ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Zero, bu borada shu paytga qadar qator izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, hali ochilmagan sirlar, o‘z yechimini kutayotgan masalalar talaygina.

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



Binobarin, o‘z davrida ilm-fan, san’at va adabiyot kabi sohalar yuksak darajada rivojlangan bu sultanatda o‘zida to‘rt yuzdan ortiq olim-u fuzalolarni jamlagan mashhur G‘azna akademiyasi, Abu Rayhon Beruniy yetakchiligidagi tashkil etilgan Yaminiy observatoriysi, Sulton Mahmud tashabbusi bilan bunyod etilgan musulmon sharqidagi dastlabki davlat madrasasi (1019) hamda ko‘plab ta’lim muassasalari, masjidlar, turli bog‘-u rog‘lar barpo etilgan. Shuningdek, poytaxt G‘azna va Nishapur, Balx, Lohur kabi shaharlardagi ulkan va boy kutubxonalar bu davr kishilari hayotida ilm-ma’rifat nechog‘lik yuksak o‘rin tutganligini ko‘rsatadi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, bu davr ilmiy-madaniy muhitida kamolga yetgan, taqdiri bevosita yoki bilvosita bu davlat siyosiy-ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab ilm peshvolari, ayniqsa, qator qomusiy olimlar qoldirgan boy ilmiy-ma’rifiy me’ros biz yashayotgan yuksak taraqqiyot asrida ham o‘zining munosib o‘rniga egadir.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон миллий енсколопедияси, II том. –Тошкент, “Давлат” нашриёти, 2005.
2. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Ислом тарихи, II китоб. – Тошкент, “Hilol nashr” nashriyoti, 2018. –543.В.
3. Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Енг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). –Тошкент, “Шарқ”нашриёти, 2001. – 368 Б .
4. Норхужаев К. Беруний ва унинг геодезия фанига доир ишлари. –Тошкент, “Фан” нашриёти, 1973. –Б.71.
5. Muhammadjonov A. O‘zbekiston tarixi/ Qayta ishlangan ikkinchi nashr/ 7-sinf uchun darslik. –Toshkent, ”Sharq” nashriyoti, 2013. –160.В.
6. Ergashov Q, Hamidov H. O‘zbekiston tarixi. –Toshkent, “G‘. G’ulom” nashriyoti, 2005. –287.В.
7. Saidboev Z. O‘zbekistonning davlat muassasalari tarixi /darslik. –Toshkent, “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2021, –392.В.
8. Kitab-i-Yamini. Utbiy. –London, 2004.
9. Ганковский Ю. В. История Афганистана. –Москва, издательство “Мысл”, 1892. –367.Б.
- 10.Босворт К. Е. Мусульманские династии. Справочник по хронологии и генеалогии. Перевод с английского. –Москва, издательства “Наука”, 1971. – 237.С.
- 11.Бейхаки А. Ф. История Масъуда. –Ташкент, издательство “Академик наук”, 1962. –С.745.